



# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan  
chiqa boshlagan

2018-yil. 7-son

ISSN 2010-5584


НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

## ZOMIN TOG'LARIDA IJOD ZAVQI



Yoshlik hayratlari bilan go'zal. Bu hayratlar yoshlarni ijodkorlikka undaydi. Bugungi zamon yoshlari har tomonlama omadli va baxtli. Ana shu omad va baxt ulardagi iste'dodni yanada charxlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 5-apreldagi "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida yosh iste'dod egalarini izlab topish, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish masalasiga yanada alohida e'tibor qaratilmoqda. Atoqli adiblarimiz Is'hoqxon Ibrat, Hamid Olimjon va Zulfiya, Ibroyim Yusupov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablarining tashkil etilgani bu yo'ldagi muhim qadam bo'ldi. (davomi muqovaning 4-betida)

Ushbu sonda



"Matnshunos shoirona zako va oilmona tahrir qudratiga ega bo'lsin!"

3- bet



Shoimring fazosi

8- bet



Neologizmlar-ning tarjimadagi muammolar

31- bet



Mass media as a great tool of teaching and analyzing the language

33- bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

**2018-yil. 7-son.**

1991-yildan chiqa boshlagan

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

## ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

### Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

### Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Kadirbay BEKTURDIYEV  
Nargiza RAHMONQULOVA  
Mamatqul JO'RAYEV  
Maqsudjon YO'LDOSHYEV  
Sirojiddin SAYYID  
Jabbor ESHONQULOV  
Abdurahim NOSIROV  
Lutfulla JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinbosari)  
Shahnoza JO'RAYEVA

### Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV  
Ergesh ABDUVALITOV  
Manzura DADAXO'JAYEVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
Ehson TURDIQULOV  
Valijon QODIROV

### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

### Nashr uchun mas'ul:

Munisjon HAKIMOV  
Nargis BOBODJANOVA

### Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Telefon: (0 371) 244-04-18,  
244-04-15, 244-20-63, 244-26-89.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalidan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 20.07.2018-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1/2</sup>. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Times» garniturası. 10, 11 kegl. «SANO-STANDART» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum., Shiroq ko'chasi 100. Buyurtma № 17-661. Adadi 6870 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

### MUNDARIJA

Nilufar Namozova. "Matnshunos sholrona zako va olimona tahrir qudratiga ega bo'lsin!"	3
Chingiz Aytmatov. Shoiming fazosi	8
Bahodir Karimov. Herman Vamberi va ikki o'zbek shoiri	12
Nazokat Jiyanova. "O'z-o'zini baholash" usuli	13
Shahlo Karimova. Badiiy mahorat masalalarini mustaqil o'rganish usullari	14
Abdunazar Jo'rayev. Nutqiy kompetentlikni shakllantirishda interfaol mashg'ulotlarning o'rni	17
Dilfuza Hamroyeva. Usul ichida usul	18
Shahlo Oshiqova. Interfaol usullarga kompetensiyaviy elementlarni singdirish	19
Aziza Suyarova. Noan'anaviy darslarda didaktik o'yinlar	21
Matluba Shodiyeva. Nimani qanday o'rgatish kerak?	22
Makhfuza Rakhmanova. Teaching to write a letter of complaint	24
Mamura Alimova. The role of affective factors in language learning	26
The Science of Decision-Making	29
Dress Codes at Work	30
Xursid Sarimsoqov. Neologizmlarning tarjima dagi muammolari	31
Oybek Axmedov. Ingliz tilidagi harbiy qisqartma terminlar tarjimai	32
Parvina Omonova. Mass media as a great tool of teaching and analyzing the language	33
Burobiya Rajabova. Tushda Navoiy vasil	35
Kamola Rahmonova. Adabiy-ilmiiy manbalar xazinası	36
Muloyim Qilicheva. Topishmoq ichida topishmoq	37
Dilnoza Jamoliddinova. Badiiy nutq va termin	38
Dilmurod Teshaboyev. Qo'shma gap qismlari orasidagi mazmuniy munosabatlarning semantik-sintaktik asoslari	39
Husnigul Jo'rayeva. Husayniy ijodining xorijda o'rganilishi	42
Feruza Burxonova. Lev Tolstoy "Iqromoma" sıda hayot mazmunining talqini	44
Dilshod Ro'ziqulov. Publitsistik matnlarda tana a'zolari nomi leksik komponent sifatida	46
Sulton Normamatov. O'quv lug'atlari tarixidan	47
Nasiruлло Миркурбанов. Великий поэт казахского народа	49
Дильдархон Хашимова. Использование электронного мультимедийного учебника при формировании правовой культуры	52
Диана Мансурходжаева. Читать – значит развиваться и совершенствоваться	54
Кристина Федотова. Темпоральный маркер still в дискурсе	56
Фарохат Мирзаева. Формирование культуры межличностных взаимоотношений у будущих учителей	59
Севара Зияева. Проектная технология при обучении немецкому языку в филологических вузах	61
Светлана Ли. Креативный подход к проведению семинарских занятий	63
Рубен Назарьян. «Слово о полку Игореве» в школьном изучении	65
Юлия Матенова. Преломление просветительских литературных традиций в романе Э.-Э.Шмитта «Эликсир любви»	67
Шохсанам Анвархужаева. О повышении индивидуальной культуры речи учащейся молодежи	69
Замира Кодирова. Обучение иностранным языкам в условиях интернационализации образовательного пространства	71
Инесса Морхова. Творческая компетентность как фундамент профессионализма будущего учителя	73
Шохиста Тахиржанова. Уровень правильности номинаций действующих лиц во французских авторских сказках	75
Дилором Балич. Федерико Гарсиа Лорка	78

TIL VA ADABIYOT  
TA'LIMI

журнали

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA va PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

## ҲЕРМАН ВАМБЕРИ ВА ИККИ ЎЗБЕК ШОИРИ

Дунёга машҳур венгер сайёҳи Ҳерман Вамбери ўз асарларида Туркистоннинг тарихи, географик муҳити, маданияти, санъати, тили ва адабиёти тўғрисида қимматли маълумотлар беради; бевосита ўзи танишиб суҳбатлашган айрим тарихий шахс ва адибларни эслаб ўтади. Бироқ Ҳ.Вамберининг Марказий Осиё халқлари маданияти ва адабиёти, ўзбек адиблари ижодига оид қарашлари бугунга қадар адабиётшунослиқда тугал тасаввур берадиган ҳолда ўрганилмади. Ҳолбуки, олимнинг “туркийзабон халқларнинг машҳур ва етакчи шоири” Алишер Навоий, “Бобурнома”дек бетакрор мемуар эгаси Заҳриддин Муҳаммад Бобур ва “Шайбонийнома” соҳиби Муҳаммад Солиҳ каби адабий сиймолар тўғрисида айрим фикрлари мавжуд. Унинг туркий ва ўзбек мумтоз адабиёти намояндалари ҳамда ўзбек халқ оғзаки ижоди намуналаридан қилган таржималари ҳам бор.

Муҳим бир далил шуки, 1892 йили Венада нашр қилинган “Яқин Шарқ хабарномаси” журналининг 6-сонида Ҳерман Вамберининг ўзбек адиблари ҳақида “Марказий Осиёнинг икки замонавий шоири – Мунис ва Амирий” (Zwei moderne centralasiatische Dichter, Munis und Emir) номли мақоласи босилади. Олим икки шоирни тавсифлашдан олдин Алишер Навоийни туркий тилда ижод этган энг истеъдодли адиб сифатида тилга олади; унинг замонасидаги адабий муҳитга тўхталади. Навоийнинг таъсирида бўлган форсий ва туркигўй шоирларга Ҳилолий билан Аҳлийни мисол қилиб келтиради. Аслида “поэтик қобилият эгалари, санъат ва илм-фан муҳиблари Ҳиротдаги темурийлар саройида кўп” бўлганини Вамбери яхши билган. Шу масалада “Бобурнома”дан қуйидаги машҳур латифани келтиради: “... бир кун шатранж мажлисида Алишербек оёғини узатур. Биноий (орқаси)га тегар. Алишербек мутояба била дерки, “Ажаб балоест дар Ҳирий агар пой дароз мекуи ба (пушти) шоир мерасад” (“Ажаб бир балодирки, Ҳиротда оёғини узатсанг, шоирнинг орқасига тегасди”). Биноий дерким, “Агар жамъ мекуни ҳам ба (пушти) шоир мерасад” (“Йиғанг ҳам, шоирнинг орқасига тегасди”). Асос-негизи ҳақиқатга яқин ушбу ҳазилни “Мемуар”нинг 226-саҳифасидан олади. Бу факт “Бобурнома”дан бир нусха Вамбери қўлида борлигини билдиради.

Ҳ.Вамбери Навоийдан кейинги адабий ҳаётни таҳлил этиб, форсийзабон шоирлар Абдураҳмон Жомийдан таъсирланганига, Муҳаммад Солиҳ эса “Шайбонийнома”ни туркий тилда ёзганига ургу беради. Олим: “Бизга Навоий ва Муҳаммад Солиҳнинг вафотидан бошлаб то янги давргача кенг қамровли ва жуда муҳим аҳамият касб этган ҳеч қанақа чиғатойча (ўзбекча) адабий асар маълум эмас”, – деб ёзади.

Вамбери XVIII аср охири ва XIX аср бошларини туркий адабиётнинг “янги даври” деб ҳисоблайди. Адабий жараёнга мос “...туркий тилли халқларнинг миллий илҳом париси бирмунча ҳаракатга кела бошлагани”ни кузатади. Шу муҳитнинг истеъдодли шоирларидан хоразмлик Мунис ва қўқонлик Амир Умархон сайёҳ олимнинг назарига тушади.

Ҳақиқатан ҳам Амир Умархон замонида Қўқон адабий

муҳитида жуда кўп шоир етишиб чиққан эди. Фазлий Намангонийнинг “Мажмуаи шоирон” тазкирасида уларнинг олтимшдан кўпроғи зикр этилади. Амирийнинг шахсан ўзи Қўқон адабий муҳитига ҳомийлик қилди, адабий баҳс, суҳбат ва мушоиралар уюштирди. Айни чоғда Вамбери Амирийнинг шажараси темурийларга бориб тақалишини, у Норбўтабийнинг учинчи ўғли бўлгани, тахтга ўтиргач, хонлик ҳудудини кенгайтирганини ёзади: “У бутун Ўрта Осиёда юксак ҳурмат қозонди ва ҳатто “Амир ал-муслимин” (Муслмонлар амири) унвонига сазовор бўлган, 1821 йил халқини азобга қолдириб ва йиғлатиб вафот этди. Шу таниқли фотиҳ хон буш вақтини бадиий ижодга бағишлади ва шеърларини жамлаб “Девон” тузди”. Буларни Вамбери Амирий “Девон”ининг муқаддимасидан олади. Мамлакатни адолат билан бошқаргани, халқ ҳаётини обод этгани, бор куч-ғайратини истибдод ва ўзаро низоларни бартараф қилиш учун сарфлагани ва илм-фан ривожига, мадрасалар қурилишига жиддий қараганини ёзади. Шунингдек, Амирийнинг кўнгил одами эканига, “у (Умархон) ҳузур ва ҳаловатни илҳом париларидан излагани”га ургу беради.

Ҳ.Вамбери Европа илм аҳлига Амирийни танитиш ниятида барча маълумотларни бир сидра такрорлайди. Айрим маълумотлар ўзбек адабиёти тарихида ёзилган маълумотлардан фарқлидир. Масалан, Умархоннинг 1787 йилда Қўқонда туғилгани, 1810 йили тахтга ўтиргани, 1822 йилда вафот этгани барча илмий адабиётларда бир хилда қайд қилинган. Аммо Ҳ.Вамбери мақоласида Амирийнинг тахтга ўтирган йили 1812 йил ва вафоти 1821 йил экани кўрсатилган.

Ҳерман Вамбери Шермуҳаммад Муниснинг таржимаи ҳолига оид маълумотларни ўша маҳалда топа олмаган экан. Унинг фикрича, Муниснинг “Айнан Умархон билан бир қаторда қурилиши “Девони Мунис” асарига боғлиқ. Сабаби “Девони Амир”да Умархон ва “Девони Мунис”да Мунис, асосан, Навоий шеърятининг тамойилларига содиқ қолган ҳолда туркий тилдаги сўз бойлигидан фойдаланишган. Фақат Умархон кўқонча ва Мунис хоразмча диалектдаги сўзларни қўллаганлар”. Бу ҳам Вамберининг ҳар икки географик ҳудуд поэтик тилига хос индивидуал хусусиятларни яхши билгани ва уларни фарқлай олганидан дарак беради.

Албатта, Вамбери Амирий ва Мунис ижодий меросини нуқтадан адабиётшунос сифатида поэтик нуқтаи назардан махсус талқин этмайди. Олим бу вазифани қўзлаган ҳам эмас. У адабий даврга тавсиф ҳамда ҳар икки шоир ва уларнинг асарлари тўғрисида умумий маълумотлар беради.

Бугунги адабий жамоатчилик, амирийшунос ва мунисшунос олимлар учун муҳим бир гап шуки, Ҳерман Вамбери ўз мақоласи давомида Амирийнинг ўн учта ғазалини, Муниснинг бир нечта ғазали ва йирик ҳажмли “Хоразм”, “Муҳаммад Раҳимхон”, “Хива”га бағишланган қасидаларининг немис тилига таржимасини эски ўзбек тилидаги аслияти билан биргаликда эълон қилади. Вамбери эркин ўгирган бу шеърлар мазмуни олмон тилида қай даражада акс этгани ҳам, таржима англами ва

maʼhorati ham maʼsus tadqiq qilinaidigan ilmiy-adabiy masala sanaladi.

Yna bir gap. Xerman Vamberti uʼz maqolasi va tarjima uchun qaysi adabiy manbani asos qilib olgani ham muhim. Olim Amiriy ʼazallari tarjimasi uchun 1883 yili Istanbulda bosilgan "Devon"dan foydalanaidi. Shoirning bugungi joriy imloida ommalashgan ʼazallari bilan Vamberti foydalangan nusxa orasida ayrim suʼz, suʼz biirikmasi va misralarda farqlar bor. Demak, Amiriy ʼazallari qayta nashrlarida, zarurat bulsa,

Istanbul nusxasidan ham foydalaniʼsh sheʼriy matn mukammallasuvi uchun ʼrdam bериши mumkin.

Aslida Xerman Vambertining Amiriy va Munis tʼgrisida muxtasar maʼlumotlar ʼzgani, asarlaridan namunalар tarjima qilib, Evropaning maʼrifat aʼliga etkazgani taʼsinga muносиb. Kelaжаqda uʼzbek adabiёti, deʼlik, Amiriy va Munis kaʼbi mumtoz adiblar asarlarini dunёga tanitiʼshga kirishadigan mutaʼassislar bu soʼxa debochasida turgan Vambertining ilmiy va amaliy hizmatlarini qadrashlari lozim.

**Foydalанилган адабиётлар:**

Amiriy. Devon. T.: Fan. 1972.  
 Amiriy. Qoshingga teguzmagil qalamni. – Toshkent: Sharq, 2008.  
 Vamberg N. Zwe moderne centraisiatische Dichter, Munis und Emir / WZKM. 6. Band. Wien. 1892.  
 Vamberti A. Puteshestvie po Sredney Azii. – Moskva. Vostochnaya literaturna, 2003.  
 Pulatxon Qayumiy. Tazkiri Qayumiy. 1 jild. T.: 1998.  
 A. Erkinov, N. Polvonov, X. Aminov. Muḥammad Raḥim II fiḫristi. Toshkent, 2010.  
 G. Xollieva. Uʼzbek mumtoz adabiёti rus adabiёtshunosligida. T.: Mumtoz suʼz. 2011.

**Qushimcha material**

**Nazokat JIYANOVA,**  
 Oʼzbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

**“O‘Z-O‘ZINI BAHOLASH” USULI**

Bugungi kunda taʼlimning barcha boʼgʼinlari, jumladan, oliy taʼlim muassasalari oʻquv mashgʻulotlarida ham talabalar egallagan bilim, koʻnikma, malakalarni aniqlash, baholashda turli innovatsion texnologiyalar va interfaol usuliardan foydalanilmoqda. Quyida ana shunday texnologiyalardan biri "Assesment" – "Oʻz-oʻzini baholash" usuli haqida soʻz yuritiladi.

Assesment soʻzi inglizcha boʻlib, "Baho" degan maʼnoni bildiradi. Usulning maqsadi amaliy mashgʻulotlarda oʻtilgan mavzularni talabalar qay darajada oʻzlashtirganliklarini aniqlash, mustaqil ravishda oʻz bilimlarini baholashdan iborat. Mazkur usulni qoʻllashda tarqatma materiallardan foydalaniladi. Tarqatma materiallardagi topshiriqlar testlar va muammoli vaziyatlardan iborat boʻladi. Ushbu usulning boshqa usullardan ahamiyatli tomoni shundaki, bitta tarqatmada bir nechta topshiriqlar beriladi. Masalan, "Oʻzbek tilining amaliy uslubiyati" fanidan "Gap turlari va ularning uslubiy vazifalari" mavzusi oʻrganiladi. Gap turlari tahlili etilganidan keyin "Assesment" usulidan foydalanish mumkin.

Dastlab oʻqituvchi ish tartibi, belgilangan maqsad va unga qoʻyilgan talablarni talabalarga tushuntiradi. Mavzular yuzasidan tayyorlangan test va muammoli vaziyatli topshiriqlar tarqatma materiallar sifatida talabalarga beriladi.

**Testlar: (5 ball)**

1. Maslahat, iltimos, taklif maʼnolarini ifodalaydigan gaplar qanday gap turiga mansub?

**A) buyruq gap**

B) darak gap

D) undov gap

E) soʻroq gap

2. Buyruq gaplarning kesimi qaysi maylda boʻladi?

**A) buyruq maylida**

B) istak maylida

D) hech qanday maylda boʻlmaydi

E) taklif maylida

3. Mazmunan bir-biriga yaqin fikrning turli shaklda bayon etilishi qanday nomlanadi?

A) omonim

B) antonim

**D) sinonim**

E) soʻroq gap

5. Nutqimizdagi soʻzlar qanday farqlanadi?

A) emotsional boʻyogʻiga koʻra

B) maʼlum uslubga tegishlligi bilan

D) soʻzlar nutqda farqlanmaydi

**E) A, B javoblar toʻgʻri**

6. Ogʻzaki nutqda feʼl-kesimdagi ikki soʻzda ham inkor shakli boʻlsa, qanday mazmun ifodalanadi?

**A) tasdiq**

B) inkor

D) A, B javoblar toʻgʻri

E) hech qanday mazmun ifodalanmaydi

7. Soʻzlashuv uslubida tasdiq shaklidagi ikki soʻzni yonma-yon keltirish orqali qanday mazmun ifodalanadi?

A) tasdiq

B) qarama-qarshi maʼno

**D) inkor**

E) hech qanday maʼno

8. Tasdiq xarakteridagi gaplarda inkor belgliari boʻladimi?

**A) boʻlmaydi**

B) boʻladi

D) A, B javoblar toʻgʻri

E) hech qanday mazmun boʻlmaydi

**Muammoli vaziyat (15 baligacha)**

A. Onpovning "Hakim va Ajal" dostonida Buxorodagi noyob kutubxona yoqib yuboriladi.

**Muammo: kutubxona nima uchun va kim tomonidan yoqib yuborildi?**

1-variant: Mirshab tomonidan pul uchun

2-variant: Vazirning oʻgʻli tomonidan, Ibn Snoni qoralash uchun

3-variant: Vazir tomonidan, maʼlumotlarni yoʻqotish uchun Oʻqituvchi tomonidan toʻgʻri javoblar umumlashtirilib, talabalar yoʻl qoʻygan xatolarni ustida ishlaydi